

“Olmaliq KMK” AJ
ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni
tekshirish tartibi bo‘yicha
YO‘RIQNOMA

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Yo‘riqnoma (keyingi o‘rinlarda – Yo‘riqnoma) “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati ijro apparati bo‘linmalari (departament, boshqarma, bo‘lim, xizmat, sektor, ofis, byuro va boshqalar) hamda tarkibiy tuzilmalariga (ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashgan korxonalar, sexlar va boshqalarga) ishga qabul qilishda nomzodlar tekshiruvini o‘tkazishning tamoyillari, talablari, mezonlari, tartibi va muddatlarini belgilovchi ichki normativ hujjat hisoblanadi.

2. Ushbu Yo‘riqnomaning maqsadi quyidagilardan iborat:

nomzod tomonidan taqdim etilgan shaxsiy, uning professional faoliyati, boshqa jismoniy shaxslar bilan qarindoshlik va tijorat aloqalari haqidagi ma‘lumotlarni tekshirish;

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlari talablariga muvofiq Kombinat ijro apparati va uning tarkibiy bo‘linmalariga ochiq va shaffof tanlovlar hamda raqobatli bellashuv asosida halol, yetuk kasbiy mahoratga ega bo‘lgan, amaliy ish tajribasi va ko‘nikmalarga ega, oliy ma‘lumotli, xorijiy tillarni mukammal egallagan, Kombinatga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarni sifatli va tezkor bajarishga qodir fuqarolar bilan mehnat munosabatlarini rasmiylashtirishga erishishni ta‘minlash;

Kombinat ijro apparati va uning tarkibiy bo‘linmalarida lavozim majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lmagan, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan, shuningdek ularni ishga olish Kombinatning ishchanlik obro‘sig, korrupsiyaga oid yoxud boshqa huquqbuzarliklarga olib keluvchi nomzodlar bilan mehnat munosabatlariga kirishish xavf-xatarlarini minimallashtirish;

Rahbarlik lavozimlari hamda moddiy javobgarlik bilan bog‘liq lavozimlarga bilimdon, halol, vijdonli, mas‘uliyatli hamda qonunga itoatkor xodimlarni tanlab olishni ta‘minlash.

3. Ushbu Yo‘riqnoma ishga qabul qilishda O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari bilan alohida tartib belgilangan lavozimlarga nisbatan tadbiq etilmaydi.

2-bob. Asosiy tushunchalar

4. Ushbu Yo‘riqnoma maqsadlarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

korrupsiyaviy harakatlar – Kombinat xodimi tomonidan bevosita yoxud bilvosita shaxsan yoxud uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo‘lida harakat yoxud harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo‘lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog‘oz, boshqa ko‘rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoxud berish, pora berish, olish yoxud bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o‘z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

manfaatlar to‘qnashuvi – Kombinat ijro apparati yoxud uning tarkibiy tuzilmalarida muayyan lavozimni egallab turgan shaxsning bevosita yoxud bilvosita shaxsiy manfaati mansab (xizmat) majburiyatlarini obektiv

va xolis bajarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yoxud shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyatlar manfaatlar to'qnashuvi hisoblanadi;

nomzod – Kombinats ijro apparati va uning tarkibiy tuzilmalarida mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlari uchun o'tkaziladigan ochiq va shaffof tanlovlarda qatnashish istagini bildirgan, bunga rasmiy shaklda da'vogarlik qilayotgan, talab qilingan malaka talablari va boshqa talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar to'plamini taqdim qilgan jismoniy shaxs;

noqonuniy foyda – vada qilinadigan, taklif etiladigan, taqdim etiladigan yoxud qonuniy asossiz olinadigan pul mablag'lari yoxud boshqa mol-mulk, yoxud mulkiy huquqlar, afzalliklar, imtiyozlar, xizmatlar, nomoddiy aktivlar, boshqa har qanday moddiy yoxud nomoddiy foyda;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodim tomonidan o'z xizmat vazifalarini bajarish doirasida uning yaqin qarindoshi yoxud xodimga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoxud xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoxud nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (shaxsiy, ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari);

yaqin qarindoshlar – qarindosh yoxud quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek er-xotinning otanasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari.

3-bob. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirishga qo'yilgan umumiy talablar va ularning muddatlari

5. Xodimlar bilan ishlash xizmati, Komplaens-nazorat xizmati (korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi) hamda Rejim-maxfiylikni ta'minlash bo'limi nomzodlarni tekshirish uchun mas'ul bo'linmalar hisoblanadi.

6. Tekshiruv barcha doimiy va muddatli lavozimlarga nomzodlar, shuningdek fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha qabul qilinayotgan nomzodlarga nisbatan ham amalga oshiriladi.

7. Nomzodni tekshirish 10 (o'n) ish kunigacha bo'lgan muddatda amalga oshiriladi.

8. Nomzodni belgilangan muddatlarda tekshirish obektiv sabablarga ko'ra imkonsiz bo'lsa, tekshirish muddati qo'shimcha 10 (o'n) ish kunigacha bo'lgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

4-bob. Tekshirish uchun hujjatlar va ma'lumotlarni olish tartibi

9. Nomzodni tekshirish uchun Kombinats ijro apparatining Xodimlar bilan ishlash xizmatiga (keyingi o'rinlarda matnda – Ijrochi deb yuritiladi) nomzod tomonidan quyidagi hujjatlar to'plami taqdim etiladi:

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 80-moddasiga muvofiq ishga qabul qilinayotganda talab etiladigan hujjatlar nusxalari;

nomzod tomonidan Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy tuzilmalarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki normativ hujjatga muvofiq shaklda to'ldirilgan va imzolangan deklaratsiya nusxasi.

10. Ma'lumotnoma olinayotganda to'ldirilmagan bandlar mavjud bo'lsa, Ijrochi nomzoddan yetishmayotgan ma'lumotlarni so'rab olishi mumkin.

11. Ijrochi nomzoddan taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha tushuntirish va qo'shimchalarni so'rab olishga haqli.

12. Nomzod so'ralayotgan hujjatlar yoxud ma'lumotlarni taqdim etishni rad etgan taqdirda nomzodni tekshirish ochiq foydalanuvdagi va Ijrochi tasarrufidagi ma'lumotlar asosida, shuningdek rasmiy so'rov yuborish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda Ijrochi tekshiruv natijalariga oid xulosada tegishli qaydni amalga oshiradi.

13. Nomzodning O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 80-moddasida ko'zda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortishi uning ishga joylashishini rad etish uchun asos bo'lmaydi.

5-bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish uchun axborot manbalari

14. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish doirasida nomzoddan olingan ma'lumotlar, shuningdek ochiq manbalardan (nomzodning ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari) yoxud rasmiy so'rovlar (avvalgi ishlagan joyi, o'qigan muassasasi, yashash joyidagi mahalla fuqarolari yig'ini va hokazolarga) yuborish orqali olingan ma'lumotlarni tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

15. Ma'lumotlarni yig'ish ishga joylashayotgan nomzod haqidagi umumiy va xolis fikrni shakllantirish, nomzoddan olingan, ma'lumotnomada qayd etilgan, nomzodning <https://vacancy.argos.uz/vacancies/vacancy-list> saytidagi shaxsiy profilidagi hujjatlar va ma'lumotlar ishonchliligini baholash, shuningdek o'zi haqidagi ma'lumotlarni yashirish yoxud soxtalashtirish alomatlari yo'qligini tahlil qilish uchun barcha ochiq axborot manbalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

16. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish uchun axborot manbalari qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi lozim. Ijrochi boshqa davlat organlari va tashkilotlariga, nomzodning avvalgi ish joylari, o'quv muassasalari va h.k. taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish uchun rasmiy so'rov yuborish huquqiga ega.

17. Ijrochi huquqni muhofaza qilish organlariga so'rov yuborish orqali nomzodning muqaddam sudlanganligi, firibgarlik, korrupsiya va zo'ravonlik bilan bog'liq ishlarga aloqadorligini tekshirishi lozim.

6-bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarning tekshiruvini o'tkazish yo'nalishlari

18. Nomzodlarni tekshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi: nomzodda tugatilmagan sudlanganlik holati yoxud iqtisodiy, jumladan korrupsiyaviy xarakterdagi qonunbuzarliklar munosabati bilan uni intizomiy, ma'muriy yoxud jinoiy javobgarlikka tortish faktlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarning yo'qligi;

sud organlari tomonidan qo'yilgan rahbarlik lavozimlarini egallashga ta'qiq yo'qligi - rahbarlik lavozimiga nomzod uchun;

nomzod yoxud uning yaqin qarindoshlari to'g'risida ularning korrupsiyaviy, firibgarlik yoxud boshqa qonunga xilof faoliyatiga doir ma'lumotlar yo'qligi;

avvalgi ish joylaridan salbiy tavsiyanomalar yo'qligi;

nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlari yo'qligi;

nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo'qligi (ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan hayot tarzining rasmiy ish haqi va daromadlariga nomutanosibligi va boshqalar).

19. Qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshiruv o'tkazish majburiy hisoblanadi. Bunda tekshiruv yo'nalishlari ro'yxati zaruratga qarab har bir muayyan holatda kengaytirilishi mumkin.

7-bob. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish natijalari

20. Nomzod tekshiruvini o'tkazish natijalari bo'yicha Ijrochi tomonidan Nomzod tekshirilganligi to'g'risidagi hisobot tuzilib (ushbu Yo'riqnomaning 1-ilovasidagi shaklga muvofiq), mazkur hisobot Xodimlar bilan ishlash xizmatida saqlanadi. O'tkazilgan tekshiruv va uning natijalariga oid ma'lumotlar Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reestri (ushbu Yo'riqnomaga 2-ilova)ga kiritiladi.

21. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy tuzilmalarning Xodimlar bilan ishlash xizmatlari (bo'linmalari) Kombinatdagi Nomzodlarni tekshirish reestriga kiritiladigan ma'lumotlarni yig'ish va ushbu Reestrni muntazam ravishda yangilab borish (dolzarb/aktual holda saqlash) uchun mas'ul hisoblanadi.

22. Tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobotning 3-bo'limidagi 3.1, 3.2, 3.3 yoxud 3.4 bandlaridagi savollarga javoblar bitta va undan ko'p xavf indikatorlari mavjud bo'lgan taqdirda ("Ha" javoblari) ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa kiritiladi.

23. Hisobotning 3-bo'limidagi 3.5. yoxud 3.6 bandlaridagi savollardan aqalli bittasiga ijobiy javob ("Ha" javoblari) mavjud bo'lgan holatda, xavf indikatorlari tekshiruvini o'tkazayotgan Ijrochi vaziyatni korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjudligi yoxud mavjud emasligi bo'yicha baholaydi.

24. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud bo'lgan taqdirda tekshiruv o'tkazayotgan shaxs ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni taklif qiladi yoxud bunday xatarlar darajasini pasaytirish imkoni bo'lmagan taqdirda nomzodni tekshirish natijalari bo'yicha salbiy xulosa beradi.

25. Tekshiruv natijalari bo'yicha korrupsiyaviy xatarlar aniqlangan va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar taklif etilgan nomzod ishga qabul qilingan taqdirda, xodimning rahbari tavsiya etilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini nazorat qilish uchun shaxsan mas'ul hisoblanadi.

8-bob. Tekshiruvni hujjatlashtirish va hujjatlarni saqlash muddatlari

26. Ishga joylashayotgan nomzodni tekshirish natijalari (tekshiruv natijalari to'g'risidagi hisobot va boshqa hujjatlar) maxfiy hisoblanadi va ishga

joylashayotgan nomzodni tanlab olish va tekshirish jarayonida ishtirok etmayotgan Kombinat xodimlari va boshqa uchinchi shaxslarga oshkor etish ta'qiqlanadi.

27. Ishga joylashayotgan nomzodlarni tekshirish reestri (Yo'riqnomaga 1-ilova)dan faqatgina Ijrochilar foydalanishi mumkin.

28. Lavozim majburiyatlarini amalga oshirish uchun, bunday ma'lumotlardan foydalanishi zarur bo'lgan boshqa xodimlar Komplaens-nazorat xizmati rahbari nomiga xizmat xati bilan rasmiy tarzda murojaat kiritadilar va uning yozma roziligini olishi lozim.

29. Nomzod ishga qabul qilingan taqdirda Tekshiruv o'tkazilgani haqidagi hisobotning asl nusxasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddat va tartibda xodimning shaxsiy yig'ma jildida saqlanishi shart.

30. O'tkazilgan tekshiruv to'g'risidagi hisobot nusxasi, shuningdek hisobotdagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar va ma'lumotlar (masalan, skrinshotlar, ko'chirma, vakolatli muassasalarga yuborilgan so'rovlar va ulardan olingan javoblar va h.k) Kombinat ijro apparatining Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan kamida 10 (o'n) yil davomida saqlanishi shart.

31. Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy tuzilmalarga ishga joylasha olmagan nomzodlarni tekshirish natijalari besh yil davomida Ijro apparatidagi Xodimlar bilan ishlash xizmatida saqlanadi.

32. Basharti, nomzod Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy bo'linmalarida ishlashga so'nggi tekshiruv o'tkazilgandan so'ng 2 (ikki) yil davomida qayta da'vogarlik qilsa, qayta tekshiruv talab etilmaydi (manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha tekshiruv bundan mustasno). Basharti, so'nggi tekshiruv o'tkazilganiga ikki yildan ortiq vaqt bo'lgan bo'lsa, ushbu nomzod umumiy tartibda qayta tekshirilishi lozim.

9-bob. Yakuniy qoidalar

33. Ushbu Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda yoxud nomzodlarni tekshirish jarayonini takomillashtirish zarurati tug'ilganda qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartirilishi lozim.

34. Ushbu Yo'riqnoma qoidalarini buzishda aybdor deb topilgan xodimlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda Kombinatning ichki normativ hujjatlarida belgilangan tartib va asoslarda intizomiy va boshqa shakldagi javobgarlikka tortilishi mumkin.

“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati bo‘linmalari hamda
tarkibiy tuzilmalariga ishga qabul qilinayotgan
nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomaga 1-ilova

Nomzod tekshirilganligi to‘g‘risidagi hisobot

1.	Asosiy ma’lumotlar		
1.1	Nomzodning to‘liq F.I.SH. (pasport asosida)		
1.2	Tug‘ilgan sanasi, oyi va yili		
1.3	Nomzod da‘vogarlik qilayotgan bo‘sh lavozim nomi		
1.4	Bo‘linma (boshqarma, departament, xizmat nomi, korxonaga yoxud sex nomi)		
1.5	Nomzod bilan bog‘lanish uchun telefon raqamlari		
1.6	Nomzodning Elektron pochta manzili		
2.	Ish tajribasi		
2.1	Avvalgi ish joylari (teskari xronologik tartibda), lavozimlari		
2.2	Avvalgi ish joylaridan salbiy fikrlar mavjudligi	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo‘q
		Izoh (lar):	
		Manba(lar):	
3.	Tekshiruv natijalari		
3.1	Ushbu Yo‘riqnomaning 11-bandida ko‘zda tutilgan hujjatlarning to‘liq paketi olindimi? («Yo‘q» javobi faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 80-moddasiga muvofiq ishga qabul	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo‘q
		Etishmayotgan hujjat(lar):	

	qilish vaqtida talab etilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda berilishi mumkin)	Ularning yo'qligi sababi(lari):	
3.2	Nomzoddan olingan, jumladan ma'lumotnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchlilik alomatlari va u tomonidan o'zi haqidagi ayrim ma'lumotlarni yashirish yoxud soxtalashtirish alomatlari yo'qligi.	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar): Manba(lar):	
3.3	Nomzodda tugatilmagan sudlanganlik jarayoni yoxud iqtisodiy, jumladan korrupsiyaviy xarakterdagi qonunbuzarliklar munosabati bilan uni ma'muriy, jinoiy yoxud intizomiy javobgarlikka tortish faktlari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar yo'qligi.	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		(Basharti, javob ijobiy bo'lsa, asosini ko'rsating)	
		Izoh(lar): Manba(lar):	
3.4	Davlat organlari tomonidan nomzodga qo'yilgan rahbarlik lavozimlarini egallashga ta'qiq yo'qligi (rahbarlik lavozimiga nomzodlar uchun).	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		Izoh(lar): Manba(lar):	
3.5	Nomzodda manfaatlar to'qnashuvi alomatlarining mavjudligi:	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
	1) nomzodning yaqin qarindoshlari "Olmaliq KMK" Kuzatuv kengashi, Boshqaruv a'zosi, ijro apparati va uning tarkibidagi bo'linmaning amaldagi xodimi hisoblanadimi?	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		(Basharti, javob ijobiy bo'lsa: Kombinat xodimining tabel raqami, ish joyi, lavozimi, vazifa hamda asosiy majburiyatlarini ko'rsating)	
		Izoh(lar): Manba(lar):	
	2) Nomzod yoxud uning yaqin qarindoshlari rahbarlik lavozimi yoxud qarorlar qabul qilish bilan bog'liq lavozimni egallab turgan bo'lsa yoxud	<input type="checkbox"/> Ha	<input type="checkbox"/> Yo'q
		(Basharti, javob ijobiy bo'lsa: F.I.SH. va qarindoshlik darajasi (basharti, manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), kompaniya nomi, lavozimi)	

	potensial ravishda Kombinat ijro apparati bo'linmalari hamda tarkibiy tuzilmalarning kontragentlari (shartnomaviy sheriklari, ishbilarmon hamkorlari) bo'lishi mumkin bo'lgan kompaniyalar boshqaruv organlari tarkibiga kirs.	Izoh(lar): Manba(lar):				
	3) Nomzod yoxud uning yaqin qarindoshlari har qanday tashkilotning ommaviy muomalada bo'lmagan aksiyalari yoxud ustav kapitalidagi ulushi yoxud Respublika fond birjasi yoxud boshqa fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan qimmatbaho qog'ozlarning 5% va undan ortig'iga egalik qilsa yoxud kompaniyalar faoliyati natijalarida shaxsiy manfaatdorligi bo'lsa (jumladan, investitsiyalar kiritish orqali)	<table border="1"> <tr> <td><input type="checkbox"/></td> <td>Ha</td> <td><input type="checkbox"/></td> <td>Yo'q</td> </tr> </table> <p>(Basharti, javob ijobiy bo'lsa: F.I.SH. va qarindoshlik darajasi (Basharti, manfaatlar to'qnashuvi Nomzodning qarindoshlari bilan bog'liq bo'lsa), kompaniya nomi, lavozimi)</p> <p>Izoh(lar): Manba(lar):</p>	<input type="checkbox"/>	Ha	<input type="checkbox"/>	Yo'q
<input type="checkbox"/>	Ha	<input type="checkbox"/>	Yo'q			
	4) Boshqa alomatlar	<table border="1"> <tr> <td><input type="checkbox"/></td> <td>Ha</td> <td><input type="checkbox"/></td> <td>Yo'q</td> </tr> </table> <p>Izoh(lar): Manba(lar):</p>	<input type="checkbox"/>	Ha	<input type="checkbox"/>	Yo'q
<input type="checkbox"/>	Ha	<input type="checkbox"/>	Yo'q			
3.6	Nomzodning yoxud uning yaqin qarindoshlarining korrupsiyaviy, firibgarlik yoxud boshqa qonunga xilof faoliyatiga doir ma'lumotlarning yo'qligi	<table border="1"> <tr> <td><input type="checkbox"/></td> <td>Ha</td> <td><input type="checkbox"/></td> <td>Yo'q</td> </tr> </table> <p>Izoh(lar): Manba(lar):</p>	<input type="checkbox"/>	Ha	<input type="checkbox"/>	Yo'q
<input type="checkbox"/>	Ha	<input type="checkbox"/>	Yo'q			
3.7	Nomzodga nisbatan boshqa xatar indikatorlari yo'qligi (jumladan, Nomzodning ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilgan hayot tarzi rasmiy ish haqiga mos kelmaydi va boshqalar).	<table border="1"> <tr> <td><input type="checkbox"/></td> <td>Ha</td> <td><input type="checkbox"/></td> <td>Yo'q</td> </tr> </table> <p>Izoh(lar): Manba(lar):</p>	<input type="checkbox"/>	Ha	<input type="checkbox"/>	Yo'q
<input type="checkbox"/>	Ha	<input type="checkbox"/>	Yo'q			
3.8	Boshqa ma'lumotlar (jumladan, intervyu natijalari)	<table border="1"> <tr> <td><input type="checkbox"/></td> <td>Ha</td> <td><input type="checkbox"/></td> <td>Yo'q</td> </tr> </table>	<input type="checkbox"/>	Ha	<input type="checkbox"/>	Yo'q
<input type="checkbox"/>	Ha	<input type="checkbox"/>	Yo'q			

“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati bo‘linmalari
hamda tarkibiy tuzilmalariga ishga qabul
qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha
Yo‘riqnomaga 2-ilova

“Olmaliq KMK” AJ ijro apparati bo‘linmalar hamda tarkibiy tuzilmalarga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish reestri

T/r	Nomzodning F.I.SH.	Bo‘sh lavozim nomi	Markaziy apparatdagi yoxud tarkibidagi bo‘linma nomi	Xodimlar bilan ishlash xizmatining, Tekshiruv ijrochisi, F.I.SH.	Nomzodni tekshirish bo‘yicha hisobot sanasi va raqami	Tekshiruv natijasi (musbat / manfiy / aniqlangan xatarlar ro‘yxati)	Tekshiruv natijasini asoslovchi qisqa izohlar
1	2	3	4	5	6	7	8
1							
2							
3							
4							
5							
...							